



TA'LIM MUASSASALARIDA BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QITUVCHISINING KASBIY POTENTIALLIGINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK AHAMIYATI

Raxmonova Mehrixon Xoshimovna

Farg'ona viloyati PYAMO'MM

Pedagogika psixologiya ta'lim

texnologiyalari kafedrası o'qituvchisi

Mustaqil tadqiqotchi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7244564>

ARTICLE INFO

Received: 10th October 2022

Accepted: 15th October 2022

Online: 24th October 2022

KEY WORDS

kompetensiya, kasbiy kompetentligi, innovatsiya, intellektual, potensial, ijodkor, konsepsiya.

Hozirgi kunda mamlakatimizda ta'lim berishning yangi tizimi ishlab chiqilgan bo'lib, bevosita jahon ta'lim tizimidan o'rin olishga yo'naltirilgan. Chunki bugungi kunda ta'lim berishning paradigmasi o'zgardi, ta'lim mazmuni yangilanib, yangicha qarashlar, yangicha munosabat paydo bo'ldi. Ta'lim – tarbiya jarayonini yangidan isloh qilish esa bugungi kunda o'qituvchi faoliyatiga, uning kasbiy potentsialiga alohida e'tibor berilmoqda.

POTENTIAL (lot. potentia — salohiyat) — biror vazifani hal etish va ko'zlangan maqsadga erishishda foydalaniladigan manba, imkoniyat, mablag', zaxiralar; ayrim shaxs, jamiyat, davlatning muayyan sohadagi salohiyatlari.

Ta'lim jarayoni, uni rivojlantirish va o'quv tarbiya jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarning kengroq joriy etilishi zamirida o'qitish usullardan samarali foydalanish ta'lim jarayonining sifatli bo'lishini ta'minlaydi. O'qituvchining asosiy vazifasi dars jarayonida interfaol

ABSTRACT

Maqolada ta'lim jarayoni, uni rivojlantirish yangi pedagogik texnologiyalarning kengroq joriy etilishi zamirida o'qitish usullardan samarali foydalanish ta'lim jarayonining sifatli bo'lishini ta'minlash asoslari yoritilgan. Xususan, boshlang'ich ta'lim o'qituvchilar potentsialini hamda ta'lim berishning sifati va samaradorligini oshirishning zamonaviy innovatsion talablari to'g'risida tavsiyalar berilgan.

usullardan samarali foydalanib, o'quvchining bilim salohiyatini oshirish, kommunikativ sifatlarni tarkib to'rtirishdan iboratdir.

SHu nuqtai nazardan olib qaraganda, pedagoglarning o'z kasbiy faoliyatiga doir pedagoglarning zamonaviy bilim va innovatsiyalar, ilg'or xorijiy tajribalardan samarali foydalanish axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o'quv jarayoniga keng tatbiq etish darajasini oshirish hisobiga ularning uzluksiz kasbiy rivojlanishini nazarda tutadi.

Kompetentlik (lotincha "com'etens" – layoqatli, qobiliyatli) deganda shaxs kasbiy bilim, ko'nikma, malakalarning professional mavqei va o'ziga tegishli vazifalarni bajarish, muammolarni hal qilishga qodirligi hamda haqiqiy munosiblik darajasi tushuniladi. Bunday layoqat boshlang'ich sinflar o'qituvchisining o'qimishlilik darajasi yahni, katta hajmdagi akademik bilimlarni egallash bilan emas, balki o'z bilimlarini amalda



samarali qo'llay olish qobiliyatini bildiradi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi pedagogik jarayonni to'g'ri boshqara olishi uchun chuqur bilim va kasbiy kompetensiyaga ega bo'lishi lozim. Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining asosiy vazifalari:

- o'quvchilarning har bir o'quv fanidan kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta'lim standartida belgilangan bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlarini ta'minlash;
- iqtidorli o'quvchilarning intellektual potentsiallarini muntazam oshirib borishlariga sharoit yaratish;
- ijodiy va mantiqiy tafakkur qila olish salohiyatini, aqliy rivojlanishini, dunyoqarashini, kommunikativ savodxonligini va o'z-o'zini anglash salohiyatini shakllantirish;
- darsda individual, juftlikda va kichik guruhlarda ishlash orqali o'quvchilarda ijodiy mustaqillik ko'nikmalarini shakllantirish;
- o'quv dasturi va o'quvchilarning tayyorgarlik darajalariga mos ravishda mashg'ulotning maqbul mazmunini tanlash;
- axloqli, ongli intizomni va xulq madaniyatini tarbiyalash, o'rgatishdan iboratdir.

Redagogning kasbiy potentsialligini oshirishda quyidagilar alohida o'rin tutadi.

Kommunikativ kompetensiya — ijtimoiy vaziyatlarda ona tilida hamda birorta xorijiy tilda o'zaro muloqotga kirisha olishni, muloqotda muomala madaniyatiga amal qilishni, ijtimoiy moslashuvchanlikni, hamkorlikda jamoada samarali ishlay olish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi — mediamanbalardan zarur ma'lumotlarni izlab topa olishni, saralashni, qayta ishlashni, saqlashni, ulardan samarali foydalana olishni, ularning xavfsizligini ta'minlashni, media madaniyatga ega bo'lish layoqatlarini shakllantirish inobatga olinadi.

O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi — doimiy ravishda o'z-o'zini jismoniy, ma'naviy, ruhiy, intellektual va kreativ rivojlantirish, kamolotga intilish, hayot davomida mustaqil o'qib-o'rganish, kognitivlik ko'nikmalarini va hayotiy tajribani mustaqil ravishda muntazam oshirib borish, o'z xatti-harakatini muqobil baholash ko'nikmalarini egallash tushuniladi.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi — jamiyatda bo'layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va ularda faol ishtirok etish, o'zining fuqarolik burch va huquqlarini bilish, unga rioya qilish, mehnat va fuqarolik munosabatlarida muomala va huquqiy madaniyatga ega bo'lish layoqatlarini shakllantirish ko'rsatiladi.

Milliy va umummadaniy kompetensiya — vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e'tiqodli bo'lish, badiiy va san'at asarlarini tushunish, orasta kiyinish, madaniy qoidalarga va sog'lom turmush tarziga amal qilish layoqatlarini shakllantirish belgilanadi.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi — aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy, oilaviy, kasbiy va iqtisodiy rejalarni tuza olish, kundalik faoliyatda turli diagramma, chizma va modellarni o'qiy olish, inson mehnatini yengillashtiradigan, mehnat



unumdorligini oshiradigan, qulay shart-sharoitga olib keladigan fan va texnika yangiliklaridan foydalana olishni nazarda tutadi.

Pedagogik kompetentlik o'qituvchilarning tushunchalari, bilim, ko'nikma va malakalarida ko'rinmaydi, balki ulardan foydalanish jarayonlarida namoyon bo'ladi.

Pedagogik faoliyat o'z mohiyatiga ko'ra ijodiy xarakterga ega. Ma'lumki, inson oldida biror muammo turgandagina ijodkorlikka ehtiyoj tug'iladi. O'qituvchilik faoliyati ana shunday xususiyatga ega pedagogik ijodkorlikning asosiy mohiyati, pedagogik faoliyatining maqsadi va xarakteri bilan bog'liq. Pedagogik faoliyat kishi shaxsini, uning dunyo qarashini, ehtiqodini, ongi, xulq-atvorini shakllantirishdek umumiy maqsadga bo'ysungan son-sanoqsiz pedagogik masalalar yechish jarayonidir. O'qituvchi faoliyatidagi ijodkorlik ana shu masalalarni yechish usullarida, ularni hal qila olish yo'llarini qidirib topa bilishlarida ifodalanadi.

Bu qobiliyatlarni shakllantirish kasbiy bilimlarni o'rganish, ko'nikma va malakalarni rivojlantirib borish natijasida amalga oshadi. Modomiki shunday ekan kasbiy malakaga ega bo'lmagan pedagoglar, boshlang'ich sinf o'qituvchilari yosh avlodga zarur va yetarli darajada ta'lim-tarbiya berish, ularda yuksak mahnaviy-axloqiy xislatlarni shakllantirish imkoniga ega bo'lmaydi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev: "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol to'ishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz", bunda kelajagimiz bo'lgan yosh avlod tarbiyasida boshlang'ich o'qituvchilarining mas'uliyati yuqori ekanligini ta'kidlaganlar.

Darhaqiqat, davlatimiz tomonidan ta'lim tizimini takomillashtirishga bo'lgan e'tibor, bu ulug' xalqimiz, kelajagimiz va ertangi kunimizga bo'lgan e'tibordir. Bunday islohotlarning pirovardida kelajagimiz vorislari bo'lgan yosh avlodning mustahkam bilim olishlari, olgan bilimlarini kundalik faoliyatda qo'llay olishlarida, komil insonlar bo'lib voyaga yetishlarida imkoniyatlar yaratamiz.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini oshirishda yuqorida zikr etilgan (omil)larga ustuvor masala tarzida ehtibor berish talab etiladi. Demak, o'qituvchilarning ijtimoiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirishda ularning turli vaziyatlarda o'zini tutishi, o'z-o'zini boshqarishi, vaziyatlarga tug'ri munosabatda bo'lishi, vaziyatlarni obyektiv baholash hamda vaziyatlarni hal etish yo'llarini topish malakalari, kelajakda kasbiy faoliyatni samarali tashkil etishga yo'naltirish yo'llaridan biri hisoblanadi.

References:

- 1.Kibanov A.Ya. Osnovq upravleniya personalom. M., 2003.
- 2.Oxotnikova V.V., Surtaeva N.N. Vopros kommunikativnoy kompetentnosti pri podgotovke spetsialista v vuze. SPb., 2002.
3. Boshlang'ich ta'lim konsepsiyasi. Tosh. 2014y



4.Zimnyaya I.A. Klyuchevqe kompetentsii - novaya paradigma rezulg'tata sovremennogo obrazovaniya// Internet-jurnal «Eydos». 2006. 5 maya. [URL]: [htt'://www.eidos.ru/journal/2006/0505.htm](http://www.eidos.ru/journal/2006/0505.htm) (data obrao'eniya 12.02.2019)

5.R.X.Djuraev. "O'qituvchilarning kasbiy mahorati va kompetentligini rivojlantirish" 2012y